



**4-SHO‘BA. Ta’lim
muassasalarida inklyuziyani
joriy etishning ijtimoiy-
psixologik muammolari.**

**IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI OILAVIY
HAYOTGA TAYYORLASH MUOMMOSIGA NAZARIY
YONDASHUVLAR**

Eshmuradov Olmosbek Elamanovich TerDPI Amaliy psixologiya kafedrasi mudiri, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b professor

***Mammadiyeva Xurshida Muxiddinovna TerDPI 70310301-
Psixologiya mutaxassisligi 1-kurs magistranti***

Inconparvarlik - xalqimizning azaliy fazilatlaridan biri bo‘lib, yurtimiz va jamiyatimizga xos bo‘lgan yukcak ma’naviy qadriyat va ijtimoiy tamoyillardan biri sifatida alohida e’tirof etiladi. Yordam va ko‘makka muhtoj insonlar, nogironligi bor bo‘lgan shaxslarning to‘laqonli hayot kechirishlari, jamiyatga faol integrasiyalashuvi va moslashuvi uchun munocib sharoit yaratib berish masalalariga yurtimiz va jamiyatimiz tomonidan alohida ustuvorlik berilmoqda.

Davlatimiz nogironligi bor bo'lgan insonlar uchun jamiyat hayotining hamma sohalarida va inson rivojlanishining barcha bocqichlarida teng imkoniyatlar yaratish orqali inklyuziv jamiyat tomon faollik bilan harakat qilmoqda. Ya'ni, inson qadrini ulug'lashga yo'naltirilgan sa'y-harakatlar

zamidida “...nogironligi bo‘lgan insonlar - jamiyatning to‘laqonli a‘zolari, degan asosiy tamoyilga amal qilgan holda izchil ish olib bormoqdamiz” – deya ta’kidlaydilar mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoev.

Barcha jamiyatlarda jismoniy yoki psixik jihatdan imkoniyatlari cheklangan odamlar sog‘lom odamlar bilan birga yashab kelgan. Zamon rivojlangan sari ularga bo‘lgan munocabat ham turlicha bo‘lgan. Jumladan, antik davrlarda qadimgi grek madaniyatida “inson Xudolarga monand bo‘lishi kerak” degan dunyoqarash nogironlarga nisbatan kamsitish va jamiyatdan ajratib qo‘yilishiga olib kelgan bo‘lsa, qadimgi Rimda nogironlarning jang maydonlarida jang qilish imkoniyatlari cheklanganligi sababli ularning fuqarolik huquqlarida ham cheklanishlar bo‘lganligi tarixdan bizga ma’lum. Quldorlik, feodalizm kabi jamiyatlarda nogironlar mehnat qobiliyati cheklanganli sabab, ularga nisbatan jamiyat uchun “ortiqcha yuk” sifatida qarash mavjud bo‘lgan. Faqatgina Uyg‘onish davriga kelib, inconga barcha narcalarning markaziy hodisasi sifatida qarash boshlanib, ularni jamiyatdan ajratmaslik, kamsitmaslik, akcincha, barcha sohalarda sharoit va imkoniyatlar yaratib berish g‘oyalari shakllana boshlagan. O‘tgan asrning ikkinchi yarmiga kelib, nogironligi bo‘lgan shaxslar jamiyatning to‘laqonli a‘zosi sifatida e’tirof etilib, insonga nisbatan ma’lum mezon va standartlarni joriy etish fikridan voz kechishga o‘tildi.

Shu tariqa nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun munosib hayot va turmush sharoitlarini yaratib berish, ularning barcha sohalardagi huquqlarini kafolatlash va g‘amxo‘rlik qilish bugungi kunda rivojlangan davlatlar insonparvarligi va demokratik boshqaruv darajasini belgilovchi asosiy mezonlardan biri bo‘lib qoldi.

AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Shvesiya kabi yuqori rivojlangan davlatlar ta’limi amaliyotida nogironligi bo‘lgan va imkoniyati cheklangan bolalarga me’yorda rivojlanayotgan tengdoshlari qatorida umumta’lim maktablarida ta’lim olish imkonini beruvchi integrasiyalashgan yondashuv

tamoyili joriy etildi.

Davlatimiz ham muvaffaqiyatli rivojlanish yillarida jahonda nogironligi bo'lgan shaxslar huquq-manfaatlarini himoya qilish bo'yicha kechayotgan barcha jarayonlarni qo'llab-quvvatlab, bu boradagi xalqaro huquqiy hujjatlarni davlat siyosatiga joriy etib, o'ziga xos tashabbus va g'oyalari bilan tajriba maktabini ham yaratib kelayotganligi ahamiyatlidir. Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini kafolatlash borasidagi umumiy e'tirof etilgan xalqaro tamoyillar, shuningdek, xalqaro huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan maqsadlar va me'yorlarni mamlakatimizning o'ziga xos xususiyatlarini ham inobatga olgan holda faol amaliyotga joriy etib kelinmoqda. Jumladan, mamlakatimizda "nogironligi bo'lgan shaxslarning qadr-qimmatini, ularning mustaqilligini, tanlash erkinligini hurmat qilish, nogironligi bo'lgan shaxslarning va ular oilalarining huquq va erkinliklarini boshqa fuqarolar bilan teng ravishda himoya qilish hamda amalga oshirish kafolatlarini belgilash orqali ta'minlanishi"ning qonuniy asoslari mamlakatimizning "Nogironligi bor bo'lgan insonlarning huquqlari to'g'risida"gi Qonunda muvaffaqiyatli qo'yilgan.

Yurtimizda "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da imkoniyati cheklangan insonlarni davlatimiz tomonidan qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish orqali ijtimoiy ehtiyojlarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga oid dolzarb vazifalardan biri sifatida tanlab olindi va bu borada o'tgan yillar davomida tizimli ishlar amalga oshirilganligini alohida ta'kidlash joiz.

Imkoniyati cheklangan bolalarga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash, jumladan, "imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitish uchun inklyuziv ta'lim tizimini tashkil etish, shu bilan birgalikda ushbu bolalarning bu tizimga moslashishi va integratsiyasi uchun maktab-internatlarni bosqichma-bosqich maxsus jihozlar bilan ta'minlash" xalq ta'limi tizimining asosiy

maqsad va vazifalari sifatida belgilab qo'yildi.

Imkoniyati cheklangan bolalarni qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ulkan ishlar sirasida ularning zamon talablariga mos ta'lim-tarbiya olishi uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar muhim ahamiyatga egadir.

Mamlakatimizda inklyuziv ta'limga bocqichma-bocqich o'tish barobarida imkoniyati cheklangan bolalar ta'limining uzoq yillik rivojlanish tarixiga hamda ilmiy, pedagogik va metodik tajribasiga ega bo'lgan maxsus ta'limda ham tub islohotlar davri boshlandi. "O'quvchilarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishi, hayotiy qobiliyatlarining shakllanishi uchun zarur korreksion-rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish" ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilandi.

Mazkur vazifalar ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari faoliyatida imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida ularga butun hayoti davomida zarur bo'ladigan bilim, malaka, ko'nikma va hayotiy kompetensiyalarni rivojlantirish va bosqichma-bosqich samarali o'quv dasturlari vositasida o'rgatib borishni taqozo etadi.

Imkoniyati cheklangan bolalarning jamiyatga integrasiyalashuvi va moclashuviga ko'maklashish, ularni jamiyat hayotining barcha sohalariga bosqichma-bosqich va rivojlanish xususiyatlariga mos dastur, uslub va modellar orqali tayyorlab borishni bildirib, bunda oilaviy hayotga tayyorlash jarayoni ham alohida ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Nogironligi bor bo'lgan inconnlarning oilaviy hayotga bo'lgan huquqlari qonun bilan himoya qilinadigan asosiy huquqlaridan birini tashkil etadi. Nogironligi bo'lgan inconnlarning oilasini har tomonlama himoya qilish va yordam berishning alohida e'tirof etilgan va har bir davlatning o'ziga xos huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy asoslari, siyosiy yo'nalishlari shakllangan bo'lib, bu o'z navbatida maxsus pedagogika va psixologiyaning bu jarayondagi asosiy vazifasi imkoniyati cheklangan bolalarni ular rivojlanishining ma'lum

ko'ratkichlaridan boshlab oilaviy hayotga tayyorlab borish sifatida belgilanadi.

Imkoniyati cheklangan bolalarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya"sida "oila jamiyatning tabiiy va asosiy hujayrasi ekanligi, u davlat va jamiyat tomonidan muhofaza qilinish huquqiga ega ekanligi hamda nogironlar va ular oilalarining a'zolari nogironligi bor insonlar huquqlaridan to'la va teng foydalanish ishiga hissa qo'shish imkonini beradigan zarur himoya va yordamga ega bo'lishlari" bilan bog'liq maqsad va intilishlarni o'zida ifoda etadi.

Bugungi kunda nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlariga oid ilg'or qarashlarda ularning oilaviy hayotga bo'lgan huquqi boshqa huquqlar bilan tengma-teng e'tirof etilmoqda. Shuningdek, yurtimizda "Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lib, u jamiyat va davlat muhofazacida" ekanligi "inson huquqlariga oid asosiy g'oya va qoidalarini o'ziga singdirgan "Bolalar huquqlari to'g'ricida"gi Konvensiya qoidalarini hamda xalqaro huquqiy hujjatlar - Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasi"ga mos ravishda oilani mustahkamlash, oilaviy munosabatlarda o'z huquq va erkinliklaridan to'laqonli foydalanishlari uchun imkoniyatlar yaratish, oilaning har bir a'zosi haq-huquqlarini himoya qilishga yo'naltirilgan" ishlarning umumdavlat va umumjamiyat harakati sifatida takomillashib borayotganligi imkoniyati cheklangan bolalarni rivojlanishning dastlabki bosqichlaridanoq oilaviy hayotga tayyorlab borish masalasining dolzarbligini yanada yaqqol ko'rsatadi.

"Imkoniyati cheklanganlik" tushunchasiga nisbatan ijtimoiy yondashuv ahamiyatining oshib borishi bu toifadagi shaxslarning nafaqat o'zgarar yordamiga muhtoj bo'lgan, jamiyatning alohida toifacini tashkil etishidan qat'iy farqli o'laroq, rivojlanishining dastlabki davrlaridanoq ulardagi nuqsonlarnigina emas, balki boshqalar kabi ularning jamiyatga faol

ijtimoiylashuvi va integrasiyalashuvi imkoniyatlarini ham o'rganish, korreksion-pedagogik texnologiyalar va maxsus metodlar orqali o'zining turli sohalaridagi ehtiyojlarini qondirishga qodir bo'lgan shaxs sifatida kamol topishiga ko'maklashish zarurligi e'tirof etilmoqda.

“Jamiyatda imkoniyati cheklangan insonlar bilan bog'liq zamonaviy tibbiy qarashlar keng tarqalgan bo'lib, ular ko'plab afsonaviy, ya'ni, ularning hayoti boshqa oddiy insonlar hayotidan tubdan farq qilishi, ularning aksariyati intim munosabatlarga kirisha olmaydi va ota-ona bo'la olmaydi, ular boshqalarning ko'magisiz hayot kechira olmaydilar va doim boshqalar yordamiga muhtoj bo'ladi, degan real voqelikka to'g'ri kelmaydigan tasavvurlarni yuzaga keltiradi”.

Biroq, imkoniyati cheklangan insonlarning aksariyat qismi ijtimoiy tajribani faol o'zlashtirishi va voyaga etgach, mustaqil hayot kechira olishi, oila qura olishi mumkin ekanligi olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda o'z tasdig'ini topgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Recpublikasi Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2018. - 21 b.
2. O'zbekiston Recpublikasining 2008 yil 7 yanvardagi “Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi O'RQ-139-son Qonuni
3. Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya. - T.: Baktria press. 2013, - 15-b.
4. Arslanova M.M. Imkoniyati cheklangan bolalarda ijtimoiy tajribani shakllantirishning ayrim tarbiyaviy-korreksion masalalari.// “Pedagogika” ilmiy-nazariy va metodik jurnali. 2015/1. T., 2015. 34-39 b.
5. Akramova F.A. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning asosiy omillari va ularning psixologik xususiyatlari. Zamonaviy ta'lim // 2015, №10. 45-52 b.
6. O. Eshmuradov, & G. Ismoilova (2022). OILAVIY MUNOSABATLARDA BOLALAR TA'RBIYASIGA TA'SIRI ETUVCHI

IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK OMILLAR. Science and innovation, 1 (B4), 201-205. doi: 10.5281/zenodo.6902544

7. Eshmuradov Olmosbek Elamanovich (2021). OILA BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (4), 1318-1323.

8. Eshmurodov, O. (2023). ҚИЗЛАРНИ ОИЛАВИЙ ҲАЁТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ИЖТИМОИЙ ПСИХОЛОГИК ЖИХАТЛАРИ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, (I). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9087>

9. Eshmurodov, O. (2023). SOG'LOM PSIXOLOGIK MUHIT OILA BARQARORLIGINING OMILI SIFATIDA . Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, (I). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9088>